

**“Navoiyzot” AJ Komplaens-nazorat boshqarmasining 2025 yil 9 oy davomida amalga
oshirgan ishlari bo‘yicha**
H I S O B O T I

«Navoiyzot» AJ Komplaens-nazorat boshqarmasining ish faoliyati 2025 yil uchun tasdiqlangan ish rejasiga asosida tashkil qilinib, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, «O‘zkimyosanoat» AJ va «Navoiyzot» AJ rahbariyati tomonidan qo‘yilgan topshiriqlar asosida va korxonaning ichki me’yoriy hujjatlariga rioya etilgan holda amalga oshirilib kelinmoqda.

1. Korrupsiyaga oid qabul qilingan hujjatlar va ularni tanishtirilganlik darajasi;

Boshqarma ish faoliyati asosan, Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga javob beruvchi kompleks tizimni, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish va rivojlantirish, korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, belgilangan sexlar tizimi xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, sexlarda korrupsiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini ta’minalash tadbirlarida faoliyatni tashkillashtirishga, Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining ehtimoliy buzilish xavflarini aniqlash, baholash hamda uni boshqarish, mas‘ul shaxslari tomonidan o‘z vazifalarini bajarish jarayonida raqobatga zid xatti-harakatlar amalga oshirilishining oldini olishga qaratilgan.

Korxonada korrupsiyaga qarshi kurash, Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining ehtimoliy buzilish xavflarini, ya’ni huquqbuzarliklarning oldini olish, korxona jamoasining huquqiy bilimini oshirish maksadida, belgilangan tartibda xodimlar bilan tuziladigan barcha mehnat shartnomalarga korrupsiyaga qarshi kurash yo‘nalishi buyicha qo‘sishma band kiritildi, hamda xodimlar bilan qo‘sishma shartnomalar imzolandi.

Shuningdek, Standart talablari doirasida qabul qilingan ichki me’yoriy hujjatlar Jamiyat ishchi-xodimlarining xabardorligi oshirish maqsadida, korxonaning har bir bo‘lim, boshqarma va sexlarda takroriy ravishda o‘quv reja tuzgan holda o‘qish-o‘rganish ishlari amalga oshirildi va natijasi buyicha bayonomalar rasmiylashtirildi.

Shu bilan bir qatorda, ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablari bo‘yicha “Navoiyzot” AJga joriy etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi yuzasidan qo‘lga kiritilgan Xalqaro sertifikat muddatini uzaytirish doirasida “CERT ACADEMY” tashkiloti tomonidan tashqi audit tadbirlari o‘tkazildi, o‘rganish natijalari va kompaniya auditorlari xulosasiga ko‘ra, jamiyatga berilgan sertifikat muddati yana 1 yilga uzaytirildi.

2. Tuzilgan shartnomalar, o‘tkazilgan tender va konkurslar konuniyligi va ichki me’yoriy xujjatlarga muvofiqligi;

Jamiyatda shartnomalar buyicha faoliyat, asosan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiiga, "Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida" gi qonunga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq shartnoma taraflaridan biri bo‘lgan "Navoiyzot" AJ tomonidan shartnomalar tayyorlash, kelishish va tuzish ishlарini samarali tashkil etish maqsadida "Navoiyzot" AJda tuzilgan shartnomalarni kelishish, imzolash va ijro etish buyicha Nizom" ishlab chiqilgan bo‘lib, bu o‘z navbatida Jamiyat uchun eng qulay va maqbul shartlarda shartnomalar tuzish va bajarilishini, shuningdek, turli salbiy huquqiy va moliyaviy oqibatlarning oldini olishni kafolatlaydi.

Ushbu Nizom talablari asosida, ko‘rsatilgan davrda korxona bo‘yicha 7 ta tender va tanlovlardan e’lon qilindi va 11 mlrd. 543035.6 mln so‘m miqdoridagi shartnomalar imzolandi.

Shu bilan bir qatorda, korxonaning buxgalteriya, ta'minot va yuridik bo'limlaridan olingan ma'lumotlarga ko'ra, hisobot davrida 1752 ta shartnoma imzolanib, shundan to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalar soni 360 ta, korporativnyiy karta 109 tani tashkil etadi.

Ushbu «Nizom» talablari asosida faoliyat yo'lga quyilgan bo'lib, barcha yo'nalishlar buyicha imzolanayotgan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar rasmiylashtirilishidan oldin Komplaens-nazorat boshqarmasi xodimlari tomonidan atroficha o'rganilinib, kerakli tavsiyalar berib borilmoqda. Shu bilan birga, birja savdolari buyicha xarid qilinayotgan maxsulotlar va xizmatlar muntazam ravishda monitoring qilinib, aniqlangan holatlar, kamchiliklar va ularni oldini olish buyicha boshqaruv raisiga takliflar kiritib borilmoqda.

Davlat xaridlarini nazorat qilish va korrupsiyani oldini olish bo'yicha Jamiatning Xom-ashyo, uskunalar, materiallar sotib olish bo'limi tomonidan o'tkazilgan xaridlar jarayonlari komplaens nazoratidan o'tkazilishi ta'minlandi.

Jumladan, 420 tadan ortiq kontragent komplaens nazoratidan o'tkazilib, aniqlangan yuqori baholangan tijorat takliflari yuzasidan tegishli xulosalar berildi, hamda chek varaqalar to'ldirildi.

Bundan tashqari, Jamiatning ishchi xodimlarini bayram, dam olish kunlari va ishdan tashqari ishlaganlariga to'lovlarni amalga oshirish jarayonlarida 1200 dan ortiq to'lov hujjatlari komplaens nazoratidan o'tkazildi.

3. Berilgan yoki olingan sovg'alar, amalga oshirilgan xomiylik va vakillik xarajatlari, korporativ kartalardan foydalanishda qonunchilik talablari bajarilishi;

Hisobot davrida, Jamiatning «Xayriya va Xomiylik faoliyati to'g'risidagi Siyosat» talablari asosida 31290860562 co'mga homiylik tadbirlari amalga oshirilgan.

Joriy yilda vakillik xarajatlari 1120863298 so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan mehmon kutish xarajatlari 918296120 so'mni tashkil etdi.

4. Fuqarolarni ishga olish va xodimlarni lavozimdan lavozimga o'tkazishda amaldagi normativ huquqiy-hujjatlarga mosligi, aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi, mavjud kamchiliklar, mazkur sohada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5177-son qarori ijrosi holati;

Joriy 9 oy davomida jamiyat tomonidan 264 nafar fuqaro ishga olingan. Hisobot davrida 230 nafar xodim ishdan bo'shatilgan. Shundan 11 nafari shtatlar qisqarishi, 83 nafari tomonlarning kelishuvi, 55 nafari o'z hohishiga ko'ra, 12 nafari xodimning vafoti munosabati bilan, 0 nafari muddatli mexnat shartnomasini muddati tugashi bilan, 20 nafari ish beruvchi tashabbusiga ko'ra, 7 nafari sud qarori bilan, 13 nafari tibbiy xulosa buyicha ishdan bo'shatilgan. Shuningdek, 29 nafari o'z arizasiga ko'ra nafaqaga chiqarilgan.

Ko'rsatilgan davrda 139 nafar ishchi xodimlarga o'z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarmaganligi va ichki-mehnat tartib qoidalarini buzganliklari uchun Mexnat kodeksi talablari asosida «hayfsan», «jarima» intizomiy jazo choralar ko'llanilgan, 853 nafar ish-xodimlar mexnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va boshqa holatlar uchun shaxsiy ko'payish koeffitsientini kamaytirish orqali jazolangan.

Mehnat munosabatlarida manfaatlar to'qnashuvi holatlari.

- Jamiyat boshqaruvi raisining 2024-yil 26-dekabrdagi 2393-soni "Manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilish shakli va lavozimlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risidagi" buyrug'i asosida, 1580 nafar manfaatlar to'qnashuvi xavfi yuqori bo'lgan injiner-texnik xodimlar manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilish deklaratsiyasi to'ldirilishi ta'minlandi.

To'ldirilgan deklaratsiyalar tahlil qilinganda, joriy yilning o'tgan davri mobaynida 7 ta mas'ul xodimlarda real manfaatlar to'qnashuvi holati mavjudligi, 19 ta holatda esa ehtimoliy (potensial) manfaatlar to'qnashuvi holati mavjudligi aniqlandi.

Mazkur holatlar yuzasidan jamiyatlar boshqaruv raislarining ko‘rsatmalariga asosan, manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solishda Odob-ahloq komissiyasi tomonidan ushbu xodimlarni korxonaning boshqa sexlariga va lavozimlariga o‘tkazilishi bilan manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish choralari ko‘rilmoxda, shuningdek manfaatlar to‘qnashuvi majudligi yoki mavjud emasligi to‘g‘risidagi deklaratsiyalash tizimda korrupsiya ko‘rinishlarining oqibati bilan emas, balki uning oldini olish, sabablari bilan kurashish, unga chek qo‘yish imkonini beradi.

Shu bilan birga, jamiyat va tizimdagи korxonalarda korruption xavf-xatarlarni aniqlash, ularning oldini olish va chek qo‘yish ushbu illatlarga imkon beruvchi sabab va oqibatlarini, hamda shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida bir qator tadbirlar amalga oshirildi.

5. Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini o‘rganish natijalari;

2025 yil 9 oy davomida “Navoiyazot” AJga jismoniy va yuridik shaxslardan 140 ta murojaat kelib tushgan. Shundan 119 tasi Virtual qabulxona orqali, 21 tasi bevosita jismoniy shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni tashkil etadi.

Bevosita jamiyatga kelib tushgan murojaatlar bo‘yicha 15 tasi qanoatlantirilgan, 103 tasiga tushuntirishlar berilgan, 1 nafariga tegishligi boshqa tashkilotlarga yuborilgan.

Tahlillarga ko‘ra, qanoatlantirilgan murojaatlarning aksariyati korxonaga ishga kirish, farzandini korxonada amaliyot o‘tashiga ruxsat berish, nogiron va kam ta‘minlangan ishchi - xizmatchilarga moddiy yordam ko‘rsatish va boshqa masalalarni tashkil etadi.

Tushuntirish berilgan fuqarolarning ko‘pchiligi korxonaga ishga joylashish yuzasidan murojaat qilishgan.

Jismoniy va yuridik shaxslardan kelgan murojaatlarni ko‘rib chiqish jarayonida qonun buzilish holatlariga yo‘l qo‘yilmagan.

2025 yil 9 oy davomida jamiyatda murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha OAVda chiqishlar soni 48 tani tashkil etgan va har chorakda jamiyatning veb sayti, telegram kanali hamda “Navoiy kimyogari” gazetasida chop etib borilmoqda.

6. Korruption xavf-xatarlar mavjud bo‘lgan boshqa holatlar (ishlab chiqarishda qo‘shib yozish, omborlardagi kamomadlar, Davlat xaridlari to‘g‘risidagi Qonun talablari buzilishi, ishga olish, rag‘batlantirish talablarining buzilishi va h.k.) to‘g‘risida;

Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta’sir choralari.

Hisobot davrida «**Navoiyazot**» AJdagi korruption qonunbuzarliklar, noqonuniy o‘zlashtirish, rastrata, o‘g‘irlik, kamomad, qo‘shib yozish va boshqa qonunbuzilishlar bo‘yicha jami **15** ta holatlar aniqlanib, ular bo‘yicha tegishli tartibda xizmat tekshiruvlari o‘tkazildi.

Yuqoridagi kabi aniqlangan qonunbuzarlik holatlari bo‘yicha 4 nafar jinoiy javobgarlikka tortilgan, 1 nafar egallab turgan lavozimidan ozod etilgan. 1 nafar ma’muriy jazo qo‘llanilgan, 5 nafardan ortiq mas’ul xodimlarga nisbatan turli intizomiy jazolar qo‘llanildi.

2025 yilning 9 oy davomida «**Navoiyazot**» AJ va tarmoq korxonalarida aniqlangan korruption harakatlar, korxona mablag‘larining talon-taroj qilinishi oqibatida tizimga jami **108,2 mlrd.so‘mlik** zarar yetkazilganligi qayd etildi. Shuningdek, o‘tgan hisobot davrida olib

borilgan chora-tadbirlar natijasida yetkazilgan jami zararning **14,0 mldr. so‘mdan** ko‘prog‘i undirilishi ta’minlandi.

1. “Navoiyazot” AJ “PVX,KS va M” ishlab chiqarish kompleksi bosh energetigi S.Q.Mirashov, 107-sex bo‘yicha tovar moddiy boyliklar javobgari katta usta A.X.Ergashov, 910-sex energetigi T.Ye.Xodjiev, 910-sex elektr qurilmalari ta’mirlash ustasi D.B.Qodirov, 910-sex 4-toifali elektromontyori D.X.O‘rinovlar ishtirokida 107-sexga qarashli

900/2-binidan 940-binasi oralig‘idagi estakada ya’ni

YeV4:6 YoTQ-0,4 kV binasi orasidagi kabelning uzunligi qadamlab o‘lchanib, 560 metr ekanligi, shundan 157 metr kabel estakadalar orasidan ikki joyidan (37, 120 metr uzunlikdagi kabel bo‘laklari) yo‘qligini, qadamlab o‘lchaganda 403 metr (25.100, 54, 161 metr bo‘laklardan iborat) kabellar estakadada qolganini aniqlandi. umumiy hisobdagi kamomadi **56 metr 54 smni**, jamiyat ta’minot bo‘limi tomonidan taqdim qilingan ma’lumotga ko‘ra, 1 metr mis kabelining narxi 1.167.566 so‘mni tashkil etib, umumiy jamiyatga yetkazilgan moddiy zarar miqdori **66,0 mln.** so‘mni tashkil etadi.

Holat yuzasidan to‘plangan ho‘jjatlar, holatga aniqlik kiritish, aybdorlarni, hamda yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash buyicha huquqni muhofaza qilish organlariga jo‘natildi.

2. Jamiyatning Kuzatuv nazorati va tahlil bo‘limi boshlig‘i Sh.B.Sindarov tomonidan boshqaruv raisi F.X.Samadovga 2025-yil 16-yanvardagi 1729-sonli bildirgisi hamda boshqaruv raisining 025, 916, 012-sexlar tomonidan foydalaniladigan qimmatbaho metallar bo‘yicha navbatdan tashqari xatlov o‘tkazish haqidagi 2025 yil 18-yanvardagi 114-sonli buyrug‘iga asosan o‘rganish o‘tkazildi. O‘rganishda, 14.01.2025 yilda 025-sonli sex boshlig‘i A.Haydarovning xizmat xonasida mavjud bo‘lgan temir seyfda O‘zbekiston Respublikasi VMning 06.03.1999 yildagi qarori bilan tasdiqlangan “O‘zkimyozanoat” AJning “Qimmatbaho metallar, shlam va lomlarni qayta ishlash tartibi” hamda “Navoiyazot” AJ 01.04.2021 yildagi 512-sonli buyrug‘i talablariga zid ravishda 09.01.2025 yilda 1-sonli agregatning okislitel lyukidan olingan polietilen qopga plombalangan va belgilangan tartibda 104-sonli omborga topshirilmagan shlam borligi, ya’ni “Qimmatbaho metallar va toshlarni qabul qilish, sarflash, hisobga olish va saqlash tartibi bo‘yicha” Yo‘riqnomaning 9.8, 9.9, 9.13 - bandlarining talablari buzilganligi aniqlangan. Holat yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312 moddasi 1-qismi 2-bandiga asosanoylik ish haqidagi 15 foiz miqdorda jarima undirildi.

3. Joriy yilning 1-choragida «Navoiyazot»AJ mol-mulkini juda ko‘p miqdorda o‘zlashtirish yo‘li bilan talon-taroj qilganligi ma’lum bo‘ldi.

Jumladan, Namangan viloyatidagi 43-sonli “SLUSTER AGROCHEM” MChJ vakolatli omborida haqiqatda mavjud mineral o‘g‘itlar qoldig‘ini aniqlash maqsadida, “Navoiyazot” AJning 28.02.2025 yildagi 422-sonli buyrug‘iga asosan tuzilgan komissiya ishtirokida yuqorida qayd etilgan Mingbulok va Pop tumanlaridagi 43-sonli vakolatli omborida bo‘lib, mineral o‘g‘itlar qoldig‘i xatlovdan o‘tkazildi.

Xatlov jarayonida, omborda 03.03.2025 yil holatiga “SLUSTER AGROCHEM” MChJga qarashli 43-sonli omborda 51147.533 tonna, **14 762 988 404** so‘m miqdordagi kamomad aniqlanib, Namangan viloyat prokuraturasi tomonidan JKning 167-moddasi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan.

4. Shuningdek, jamiyat boshqaruvi raisi topshirig‘iga asosan, jamiyat mineral o‘g‘itlari saqlanayotgan Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanida joylashgan «BMX STUDY CONSULT» MChJda o‘tkazilgan xatlov natijasiga ko‘ra, aniqlangan **1408** tonna, **3 mlrd. 900 mln.** so‘m miqdordagi ammiakli o‘g‘itlar kamomadi holati yuzasidan Prokuratura organlari tomonidan JKning 167-moddasi bilan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi doirasida yetkazilgan zararning bir qismi sifatida 600 mln. so‘m qaytarildi.

5. O‘rganish davomida Qaraqalpog‘iston Respublikasi xududida joylashgan “60- sonli “DAVR HAMKOR TRADE” MChJ vakolatli omborning mineral o‘g‘itlar qoldig‘i chandalab (vizual tartibda) ko‘rilganda MChJ xududi omborida 1994.6 tonna ammiakli selitra mineral o‘g‘itlari qoldig‘i borligi aniqlandi. Ushbu tekshiruv natijasida xisobxona ma’lumotlariga nisbatan 184,9 tonna 518.5 mln. so‘mlik kamomad borligi ma’lum bo‘ldi. Joyida rasmiylashtirilgan dalolatnomaga “DAVR HAMKOR TRADE” MChJ ombor mudiri javobgar shaxs A. Aytbaevning xatlov jarayonida ishtirpok etmagani sababli, “Navoiyazot” AJning 2025-yil 20- fevraldagi 337- sonli bo‘yrug‘iga asosan qaytadan ishchi guruxi tuzgan xolda ushbu xolat qayta o‘rganilganda **112,2** tonna **314.6 mln** so‘mlik mineral o‘g‘itlar kamomadi borligi aniqlangan va dalolatnomaga rasmiylashtirilgan. Ushbu xolat buyicha ma’lumot jamiyat raxbariyatiga taqdim etilgan. Lekin dalolatnomaga tashkilot rahbari D. Abduxaliqov imzo chekishdan bosh tortgan. Xatlov jarayonida aniqlangan kamomad joyida qaytarilishi ta’milangan.

6. Xorazm viloyatidagi 52-sonli “GURLAN BIO KIMYO XIZMAT” MChJ vakolatli omborida haqiqatda mavjud mineral o‘g‘itlar qoldig‘ini aniqlash maqsadida, “Navoiyazot” AJning 11.06.2025 yildagi 1095-sonli buyrug‘iga asosan tuzilgan komissiya ishtirokida yuqorida qayd etilgan Urganch shaxridagi 52-sonli vakolatli omborida bo‘lib, mineral o‘g‘itlar qoldig‘i xatlovdan o‘tkazildi.

Xatlov jarayonida, omborda 21.06.2025 yil holatiga “GURLAN BIO KIMYO XIZMAT” MChJga qarashli 52-sonli omborda **1209,987** (Bir ming ikki yuz tukkiz tonna tukkiz yuz saksan yetti kg) tonna, **3 392 985 046,05** (uch milliard uch yuz tuksun ikki million tukkiz yuz sakson besh ming kirk olti so‘m 05 tiyinn) so‘mlik ammiakli selitra mineral o‘g‘iti kamomadi aniqlandi.

7. Shuningdek Jizzax viloyatidagi vakolatli omchorlarda haqiqatda mavjud mineral o‘g‘itlar qoldig‘ini aniqlash maqsadida, “Navoiyazot” AJning 07.04.2025 yildagi 646-sonli buyrug‘iga asosan tuzilgan komissiya ishtirokida mineral o‘g‘itlar qoldig‘i xatlovdan o‘tkazilib quyidagi kamilmadlar aniqlandi va O‘zbekiston Respublikasi JKning 167 moddasi 3-qismi “a” bandi, 228-moddasi 3-qismi bilan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi bo‘yicha tergov harakatlari olib borilmoqda:

8. Jizzax shaxridagi 42-sonli (“BEST ES HAMKOR” MChJ) vakolatli omborida mineral o‘g‘itlar qoldig‘i xatlovdan o‘tkazilganda **10 255,700** (o‘n ming ikki yuz ellik besh tonna yetti yuz kg) tonna ya’ni **28 037 842 860,30** (yigirma sakkiz milliard o‘ttiz yetti million sakkiz yuz qirq ikki ming sakkiz yuz oltmish so‘m 30 tiyin) so‘mlik ammiakli selitra mineral o‘g‘iti kamomadi aniqlandi.

9. Paxtakor tumanidagi 71-sonli (“PRIME SUGAR” MChJ) vakolatli omborida mineral o‘g‘itlar qoldig‘i xatlovdan o‘tkazilganda **7 194,500** (yetti ming bir yuz to‘qson to‘rt tonna besh yuz kg) tonna ya’ni **19 668 892 465,50** (o‘n to‘qqiz milliard olti yuz oltmish sakkiz million sakkiz yuz to‘qson ikki ming to‘rt yuz oltmish besh

so‘m 50 tiyin) so‘mlik ammiakli selitra va **337,130** (uch yuz o‘ttiz yetti tonna bir yuz o‘ttiz kg) tonna ya’ni **713 209 640,29** (yetti yuz o‘n uch million ikki yuz to‘qqiz ming olti yuz qirq so‘m 29 tiyin) so‘mlik sulfat ammoniy mineral o‘g‘itlari kamomadi aniqlandi.

10. Paxtakor tumanidagi 61-sonli (“Zomin Kimyo” MChJ) vakolatli omborida mineral o‘g‘itlar qoldig‘i xatlovdan o‘tkazilganda 1 294,120 (bir ming ikki yuz to‘qson to‘rt tonna bir yuz yigirma kg) tonna ya’ni **3 537 967 491,48** (uch milliard besh yuz o‘ttiz yetti million to‘qqiz yuz oltmis yetti ming to‘rt yuz to‘qson bir so‘m 48 tiyin) so‘m ammiakli selitra va 67,863 (oltmis yetti tonna sakkiz yuz oltmis uch kg) tonna ya’ni **230 580 965,35** (ikki yuz o‘ttiz million besh yuz sakson ming to‘qqitz yuz oltmis besh so‘m 35 tiyin) so‘m AFU mineral o‘g‘itlari kamomadi aniqlandi.

11. “Navoiyazot” boshkaruvining 2025- 18-fevraldagi 322- sonli bo‘yrug‘iga asosan jamiyat tarkibidagi “036” – sonli temir yo‘l sexida 2024 yil 1 yanvardan 2025-yil 18- fevralga qadar YoMMdan samarali foydalanish bo‘yicha o‘rganish o‘tkazib temir yul sexiga qarashli TEM2-2302 xamda TEM2 2117 raqamli monyovr teplovozlari bo‘yicha “GPS” qorilmasi ko‘rsatkichlariga nisbatan jami 56 soat 25 daqiqa ortiqcha moto soat ishlaganligi ko‘rsatilib **11 603.6** ming so‘mlik 1136.78 litr ortiqcha dizel yoqilg‘isi xisobdan chiqarilganligi xolati aniqlanib dalolatnomalarasmiylashtirildi. To‘plangan hujjatlar tegishligi bo‘yicha huquqni muhofaza qilish organlariga yuborildi.

12. Navoiy harbiy prokuraturasining 2024-yil 10-dekabrdagi xujjatli taftish tayinlash to‘g‘risidagi hamda “Navoiyazot” AJning 14-dekabrdagi № 2299 – sonli bo‘yrug‘iga asosan ishchi guruxi tuzilib, jamiyat omborlaridagi PVX maxsulotlari sanoqdan o‘tkazildi va jamiyatning buxgalteriya hisoboti buyicha PVX tayyor maxsuloti qoldigi 14 980,095 tn tashkil etgan bulsa, xakikatda inventarizatsiya natijasida 15 038,048 tn PVX maxsulotlari borligi aniklanib, hisobotga nisbatan 57,951 tn ortikcha PVX maxsuloti borligi aniklandi. Shuningdek o‘rganilgan olingan ma’lumotlar Navoiy harbiy prokururasiga jo‘natildi.

13. Xorazm viloyatidagi 05-sonli “Xasanota” MChJ vakolatli omborida haqiqatda mavjud mineral o‘g‘itlar qoldig‘ini aniqlash maqsadida, “Navoiyazot” AJning 15.09.2025 yildagi 0061-sonli buyrug‘iga asosan tuzilgan komissiya ishtirokida yuqorida qayd etilgan Urganch shaxridagi 05-sonli vakolatli omborida bo‘lib, mineral o‘g‘itlar qoldig‘i xatlovdan o‘tkazildi.

Xatlov jarayonida, omborda 19.09.2025 yil holatiga “Xasanota” MChJga qarashli 05-sonli omborda **302,00** (uch yuz ikki) tonna, **8466853300,00** (sakkiz yuz kirk olti million sakkiz yuz ellik uch ming yuz so‘m) so‘mlik ammiakli selitra mineral o‘g‘iti kamomadi aniqlandi.

14. Toshkent viloyati Yangiyul tumanidagi 49-sonli “GULNUR DAMIR” MChJ vakolatli omborida haqiqatda mavjud mineral o‘g‘itlar qoldig‘ini aniqlash maqsadida, “Navoiyazot” AJning 14.06.2025 yildagi 1108-sonli buyrug‘iga asosan tuzilgan komissiya ishtirokida yuqorida qayd etilgan Toshkent viloyati Yangiyul tumandagi 49-sonli vakolatli omborida bo‘lib, mineral o‘g‘itlar qoldig‘i xatlovdan o‘tkazildi.

Xatlov jarayonida, omborda 02.07.2025 yil holatiga “GULNUR DAMIR” MChJga qarashli 49-sonli omborda 1722,950 (Bir ming yetti yuz yigirma ikki tonna

tukkiz yuz ellik kg) tonna, 4686424,00 (turt milliard olti yuz sakson olti million turt yigirma turt ming) so‘mlik ammiakli selitra mineral o‘g‘iti kamomadi aniqlandi.

15. O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamenti Namangan viloyati Mingbuloq tuman bo‘limining 17.09.2025 yildagi 7-4595869/25-sonli xatiga asosan, joriy yilning 23 sentabr xolatida vakolatli ombordagi mineral o‘g‘itlar qoldig‘i xatlovdan o‘tkazildi.

“Navoiyazot” AJ buxgalteriya hisobiga asosan 43-sonli “CLUSTER AGROCHEM” MChJ vakolatli omborida 19.09.2025 yil holatida 676,943 tonna (olti yuz yetmish olti tonna to‘qqiz yuz qirq uch kg) tonna, 1841284960 (bir milliard sakkiz yuz kirk bir million ikki yuz sakson turt ming tukkiz yuz yuz olmish sum) so‘mlik ammiakli selitra maxsulotlar koldigi mavjud emasligi aniklandi.

Xaridlarni tashkil etish sohasida qonunbuzilish holatlari.

1). Hisobot davrida, “Navoiyazot” AJ va “CHEMICAL MAGIC” MChJ orasida tuzilayotgan shartnoma loyihasida “Poroshok kislotoupornyy (diabazovaya muka)” 1 tonnasi uchun 4500 000 so‘m QQS bilan birga narxi ko‘rsatilgan holda xarid qilish ko‘zda tutilgan bo‘lib, komplaens nazorat davomida shartnoma loyihasida ko‘rsatilgan (1kg-7150 so‘m) va ijtimoy tarmoqlar orqali olingan narxlari (1 kg-5500 so‘m) va (1 tonnasi-4500 000 so‘m) orasida umumiy qiymatda **94 mln 50 ming va 151 mln 50 ming so‘m arzon** ekanligi aniqlandi. Bu borada boshqaruv raisiga tegishli tartibda ma’lumot taqdim etilib, shartnoma imzolanishining oldi olindi va ijrochiga nisbatan tegishli inizomiy jazo qo‘llanildi.

Shuningdek, “Navoiyazot” AJ va “Stankoservis” MChJ orasida imzolanayotgan 312 mln. so‘m miqdordagi TMBlarni xaridiga oid shartnoma loyihasi o‘rganilib, **200 mln. so‘m** qimmat narxlarda xarid qilinayotgani aniqlanib, shartnoma bekor qilindi.

2). Xom-ashyo, asbob-uskunalar xarid qilish bo‘limining “Navoiyazot” AJning 129-sonli sexining EDO:№2080-sonli buyurtmasi asosida “Sukno shinelnoe” eni 139 sm. mahsuloti yuzasidan tayyorlangan xarid ma’lumoti o‘rganib chiqilganda, kontragentlar “Rising Partner” XK, “Universal Businesses” MChJ, “Competitive Enterprises” MChJlar afillanganlik holati va ular tomonidan taklif etilgan narxlari o‘rganib chiqildi. O‘rganish davomida kontragentlarning afillanganlik holati aniqlanmadidi. Narxlari ochiq manbalar orqali tahvil etilganda bir necha bor yuqori ekanligi aniqlanib, boshqaruv raisiga yozma ma’lumot kiritildi, shuningdek 172 475 000 (bir yuz yetmish ikki million to‘rt yuz yetmish besh ming) so‘mlik yuqori ko‘rsatilgan shartnomaning oldi olindi.

3). Jamiyatning 50-sonli sexi tomonidan 14.05.2025 yildagi 15237-sonli buyurtmasi yuzasidan tayyorlangan tijorat takliflar o‘rganilganda, yuqorida qayd etilgan buyurtmadagi tovar moddiy boylik (TMB)lar, ya’ni “Akvarium тывныу” 180x60x160 sm. “s sisitemoy filtratsii dekorativnym Led”ni kontragentlar: “Navoiy Agro Story Servis” MChJ, “Aziya Brend 777” va “AV-MIR” X/Klar tomonidan eng arzoni 46 000 000 (qirq olti million) so‘mga taklif bergenlar. Aslida esa, buyurtmachi akvarium o‘lchami, nomi yuzasidan ma’lumot bermagan. O‘rganishlar jarayonida, 1S dasturiga tijorat taklif berayotgan kontragentlar to‘g‘risida afillanganliklari yuzasidan ma’lumotlar kiritilmagan, biz tomondan ochiq manbalar: “OZON”, “PetZoo”, “AKVARIUM.UZ”, “AQUASTAR.UZ” orqali narxlari taxlil qilinganda, “Akvarium тывныу, s sisitemoy filtratsii dekorativnym Led” va boshqa shunga o‘xshash ofisbob akvarium turlari 7 mln. 677 ming so‘mdan 12 mln.487 ming 863 so‘mgachava undan ham arzonlari mavjudligi aniqlandi. Bu borada ham boshqaruv raisiga tegishli tartibda ma’lumot kiritilib (EDON №17307 30.05.2025y.) shartnoma rad etildi.

7. Korxonada xodimlarni xuquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik prinsipi shakllantirish bo'yicha o'qitish, trening, seminar va profilaktik tadbirlari;

Hisobot davrida, Korrupsiyani oldini olish va unga murosasiz munosabat shakllantirish bo'yicha Jamiyatning barcha sexlari ishchi xodimlarida korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabat shakllantirish maqsadida umumprofilaktik tadbirlari o'tkazib kelinmoqda. Shu bilan birga, «Navoiyzot» AJ Komplaens xizmati telegram bot kanali, korxonaning rasmiy veb-saytida «Korrupsiyaga qarshi kurash» sahifalari orqali ishchi-xodimlarni yo'naliш bo'yicha olib borilayotgan tadbirlar, yo'naliш bo'yicha ishlab chiqilayotgan normativ hujjatlar bilan tanishtirib borilmoqda.

Korxonaning rasmiy veb-sayti "Navoiyazot.uz", "Navoiyazo" AJ rasmiy telegramm kanali, ijtimoiy sahifalarida 23 dan ortiq tahliliy maqolalar orqali jamiyat hayotidagi holatlar yoritib borilmoqda.

8. Korxonadagi korurupsiyaga qarshi kurashish siyosati talablari bajarilishi, korruption xavf-xatarlar, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq takliflar.

- jamiyatning sex boshliqlari va ularning o'rribosarlari, iqtisodchilar, texnik hisobchilar, hamda moliyaviy-xo'jalik hujjatlari bilan ishlaydigan ma'sullarga, moliyaviy-xo'jalik hujjatlarini belgilangan talablar asosida ish yuritish, korruption xatarlarni o'rganish, bartaraf etish choralar mavzularida o'kuv-seminar mashg'ulotlarini davom ettirish;

- korruption holatlarni oldini olish va yo'l quymaslik maqsadida profilaktik tadbirlarni muntazam ravishda jamiyat sexlari kesimida amalga oshirib borish;

- Korrupsion xavf-xatari yuqori bo'lgan boshqarma, bo'lim va sexlarda jamiyatning o'z ichki imkoniyati orqali muntazam ravishda ichki audit o'tkazishni ta'minlash;

- Aniqlangan korruption holatlar bo'yicha javobgarlikni muqarrarligini ta'minlash;

- Korrupsiyaga qarshi kurashish ISO 37001:2025 Xalqaro standarti buyicha jamiyat ishchi-xodimlarini o'qitish tadbirlarini davom ettirish, hamda bosqichma-bosqich jamiyat bo'lim va boshqarmalarida, jamiyat ichki auditorlari ishtirokida audit tadbirlarini amalga oshirib borish;

- «O'zkimyosanoat» tizimidagi korxonalar o'rtasida tajriba almashish tadbirlari, ichki xizmat safarlari uyushtirish;

- Komplaens-nazorat xodimlari malakasini oshirish bo'yicha o'quv-semenar kurslarini tashkil etishni davom ettirish.

- Jamiyatga Sotib olinayotgan maxsulotlarni O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari" to'g'risidagi 22 aprel 2021 yildagi O'RQ-684-sonli Qonuni, hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20 may 2022 yildagi 276-sonli Qarori talablari asosida amalga oshirilishini muntazam ravishda monitoring qilib borish.

9. Amalga oshirilgan ishlar (yutuqlar).

- jamiyat hayotiga «Korrupsiyaga qarshi kurashish» ISO 37001:2016 xalqaro standartini tadbiq qilindi va joriy yilning yanvar oyida ushbu standartning Xalqaro Sertifikati muddati uzaytirildi.

- «Korrupsiyaga qarshi kurashish» ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablari asosida jamiyatning korruption xavfi yuqori bo'lgan bo'lim va boshqarmalarida boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlangan rejaga asosan ichki audit o'tkazish tadbirlari belgilab olindi va amalga oshirilmoqda.

**Komplaens-nazorat
boshqarmasi boshlig'i v.v.b.
«___» oktabr 2025 yil**

K.H.Jumaev